

YUKLAGICH CHO'MICH TISHINI QAYTA TIKLASH TEXNOLOGIYASI

T.M.Isaboyev

Andijon mashinasozlik instituti

«Texnologik mashinalar va jihozlar» Kafedrasi katta o'qituvchisi

Talaba: Rustamov Shexrozbek Rustamjon o'g'li

Jahonda, rivojlangan mamlakatlarning ilmiy- tadqiqot markazlarida, yo'l qurish, qurilish, konchilik mashinalari ishchi organlarining yeyilishini kamaytirish va resursini orttirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan yo'l qurish, qurilish, konchilik ishlab chiqarishida raqobatbardosh texnika va texnologiyalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan yo'l qurish, qurilish, konchilik ishlari salmog'ini orttirish, ularda qo'llaniladigan texnikalarni sifat jihatdan yaxshilash va undan foydalanishning samaradorligini oshirish hamda ishchi organlarning resursini orttirish usullari parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Yuklovchi mashinalarni bir necha turlari mavjud bulib, konstruksiyalariga qarab turli joylarda ishlashga mo'ljallangan. (Shaxtniy pogruzchik) Yer ostida shaxtalarda past va tor joylarda ham ishlash uchun yaratilgan yuklovchi mashinalar turli xil tog' jinslarini, yer osti materiallarini yuklash imkoniyatlariga ega (Vilochniy pogruzchik). Maxsus yuklovchi mashinalar (karalar) qishloq xo'jaligida, og'ir va yengil sanoatda, omborlarda, savdo tashkilotlarida, terminallarda va boshqa shunga o'xshash joylarda turli xil buyumlarni yuklashda hamda ko'tarib tushirishda ishlatiladi. Jahonda yo'l qurish, qurilish, konchilik kabi sohalar rivojlanib borayotgan bir davrda ularda ish sifatini va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida energiya va resurstejamkor texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida yo'l qurish, qurilish, konchilik kabi sohalarda ish hajmini va sifatini oshirishga bo'lgan talabni ortib borayotganini hisobga olsak», bu ularda qo'llanilayotgan texnika vositalarining ish unumini va foydalanish samaradorligini orttirish, energiya, materiallar va ehtiyot qismlar sarfini kamaytirish ustida tadqiqotlar olib borish hamda olingan ijobiy natijalarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan yo'l qurish, qurilish, konchilikda qo'llaniladigan mashinalarni tez yeyilib ishdan chiqadigan qismlarining ish resursini oshiradigan materiallarni yaratish va usullarni takomillashtirish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan payvandlab qoplash texnologiyalari asosan yuklagich cho'mich tishlarining resursini oshirishga qaratilgan. Ularda yuklash mashinalari cho'mich tishlarini payvandlab qoplash masalasi ko'rib chiqilmagan. Shuning uchun ham yuklash mashinalarining cho'mich tishlarini payvandlab qoplash usulini ishlab

chiqish, payvandlab qoplash parametrlarini hamda payvandlab qoplash materiallari tarkibini asoslash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Косимов К.З, Юлдашев Ш. Х. "Пайвандлаб қопланган экскаватор чўмич тишларини кимёвий таркиби ва қаттиқлигини ўрганиш натижалари" ТошТЙМИ №4 2020. Стр.153.
2. Kosimov K.Z, Yuldashev Sh.X "Erosion parts of the working surface of the metal to weld sheeting with the metal powder and surpassing solid for metals"
3. Игамбердиев М. К., Исабоев Т. М., Кодиров Н. У. У. Недостатки технологии обработки хлопка-сырца и пути их преодоления //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-2 (75). – С. 36-39.
4. Халматов М. М. и др. ВЛИЯНИЕ ДЕРЕВЯННЫХ НАСАЖДЕНИЙ НА СОСТАВ И ЧИСТОТЫ ВОЗДУХА //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 113-115.
5. **Тохиржон. Isaboev** PAYVAND BIRIKMLARANI MEKANIK XUSUSIYATLARINI [Journal]. - **АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ** : Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyani, 2021-yil йил. - 27-29 октябрь : Vols. 1-2.
6. **Мехмонович Исабоев Тохиржоа** ВОЗДУХООЧИСТИТЕЛЬ ПРОМЫШЛЕННОГО ПОМЕЩЕНИЯ [Журнал]. - **АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ** : Международной научно-практической конференции по теме, 2021 год г.. - 27-29 октябрь, : Т. 1-2-том
7. **ТОШ ТУПРОҚ ҚАЗИШ МАШИНАЛАРИ ИШЧИ ОРГАНЛАРИНИ ЕЙИЛИШГА ЧИДАМЛИЛИГИНИ ОШИРИШ ИШЛАРИ ТАХЛИЛИ**
ТМ Исабоев - Новости образования: исследование в XXI веке, 2023